



O'ZBEKISTON HAMDA CHET ELDA VASIYLIK HAMDA HOMIYLIK

*Mamatkulova Ro'zaxon-Iniversity of Management and Future Technologies
Universiteti 551-guruh talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda dolzarb mavzulardan biri bo'lgan qarovsiz qolgan bollararga vasiylik qilish va qaramog'iqa olish uning shartlari va huquqiy hujjatlari to'g'risida so'z yuritiladi. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga asosan vasiylik yoki homiylik ota-onalik vafot etganda, ota-onalik tarbiyalashga layoqatsiz deb topilganda, ota-onalik huquqi rad etilganda, ota-onalik huquqi cheklanganda, ular kasal bo'lganda, ota-onalik uzoq muddat bo'lmaganda, ota-onalik bolalarni huquq va manfaatlarini himoya qilishdan bo'yin tortganda, ota-onalik tarbiyalash, bolalar ota-onalik qaramog'idan mahrum bo'lgan va boshqa hollarda, shuningdek, voyaga yetgan, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslarga nisbatan ularni ta'minlash, tarbiyalash va ularga ta'lim berish maqsadida, ularning shaxsiy va mulkiy huquqlari va ularning manfaatlarini himoya qilish uchun belgilanadi. Qaramog'ini yo'qotgan bollarga vasiylik va homiylik organi himoyasiga tushgan vaqtida, bolada ruhiy zo'riqish holatida yashayotgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham bolalarga yordam ko'rsatish bo'yicha barcha harakatlar yaxshi rejalashtirilgan va uyg'unlashtirilgan bo'lishi juda muhim. Har bir bola individual tarixga, hech bir bolaning ijtimoiy vaziyati boshqa bir bolaning ijtimoiy vaziyatini qayta takrorlamaydi. Shuning uchun ham har bir bolaning muammolariga alohida yondoshish zarur hisoblanadi. Balki bola: - yolg'iz qolishni; - siz bilan yakka suhbatlashishni; - yana kim bilandir suhbatlashishni; - tutingan ota-onaning farzandlari bilan suhbatlashishni istashi mumkindir. Ko'p hollarda bolalar o'zini qo'pol va jahldor tutishi yoki aksincha barcha talab va bergen savollaringizga javob qaytarmasdan turishi yoki xatto ovqatda ham bosh tortishi mumkin Bolaning dastlabki kunlardagi xulqi atvori qanday bo'lishidan qatiy nazar, uni o'z holiga qo'ying, va uni yonida bo'ling. Diqqatli, ziyrak



va e'tiborli bo'ling, har qanday vaziyatda ham yordamga tayyor turing. shunda sizga o'z farzandlaringiz yoki boshqa tutingan tarbiyalanuvchilar yordam berishlari mumkin.

Kalit so'zlar: vasiylik, homiylik, shaxslar, huquq, ota ona, qonun, oila kodeksi, fuqorolik kodekisi

Kirish

Bolaning dastlabki kunlardagi xulqi atvori qanday bo'lishidan qatiy nazar, uni o'z holiga qo'ying, va uni yonida bo'ling. Diqqatli, ziyrak va e'tiborli bo'ling, har qanday vaziyatda ham yordamga tayyor turing. shunda sizga o'z farzandlaringiz yoki boshqa tutingan tarbiyalanuvchilar yordam berishlari mumkin. Boquvchisini yo'qotgan bolalar kategoriylariga quyidagilari kiradi: 1. Ota-onalari vafot etgan. 2. Ota-onalik huquqidan mahrum etilgan. 3. Ota-onalik huquqlari cheklangan; 4. Noma'lum, daraksiz, yo'q hisoblangan. 5. Ishga yaroqsiz (nosog'lom, ish qobiliyati cheklangan); 6. Jazoni ijro etish kolonniyalarida jazo olayotgan. 7. Jinoyat qilganlikda ayblanadi va qamoqqa olingan. 8. Bolalarni tarbiyalashdan bosh tortgan. 9. Bola vaqtincha joylashtirilgan davolash, ijtimoiy tashkilotlardan bolani olib ketishdan bosh tortagan. Yetim bolalarni vasiylikka olish va ota-onasidan qarovisiz qolgan bolalarni boqish, ta'lim berish va ularning huquq qiziqishlarini himoya qilish uchun joylashtirish muhimdir. Vasiylik 14 yoshdan oshmagan bolalar ustidan o'rnatiladi, qaramog'iga olish 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lган bolalar ustidan o'rnatiladi. Har bir davlatda, har bir jamiyatda ham ota-onasidan yetim qolgan bolalar bo'ladi. Bu holatda davlat va jamiyat bu bolalarning tarbiyalanishi va rivojlanishi mas'uliyatini o'z bo'yniga oladi. Internat turidagi muassasalarda bolalarning muammolarini o'rganish bilan shug'ullanayotgan pedagoglar shuni aniqlashdiki hayotning dastlabki davrlaridanoq yaqinlarini yo'qotgan bolaning kelgusidagi taqdirini oldindan belgilab berar ekan. Ota-onasidan ayrilish yoki barcha yaqinlaridan ayrilib qolish bolalar rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bolalik insonning hayotga qiziqishini, ruhiy bardoshliligi, maqsadga intiluvchanligini ta'minlovchi asosiy shakllanish davridir. Buma'naviy xislatlar tartibsiz shakllanmaydi, ular ota-ona mehrida, oila bolaga o'zi



va boshqalar uchun mas'ul bo'lish, birovga kerakligini sezish sharoitida shakllanadi.Otaonaga ega bo'lish bolaning eng kuchli ehtiyojlaridan biri .Xulosa

Vasiylikka olingan bola turli xildagi qabul qiluvchi oilalarga borib qolishi mumkin. Ular o'rtasidagi farq shundaki birinchi holatda bolani yaqin qarindoshlari topib olishadi,yoki oila vazifasini bolaga qarindoshlik aloqalari bo'lмагan shaxslar bajaradi. Vasiylik sud qarori bilan aniqlanadi. Vasiy oilaning vazifalariga bolani tarbiyalash,ta'lim berish va rivojlantirish, uning huquqlarini himoya qilishdan kiradi. Vasiy oila bola egaligida bo'lgan ko'chmas mulklardan foydalanish va ularni saqlab qolishni ta'minlaydi. Biroq bu mulkdan o'zi foydalanishi mumkin emas. Boqib oluvchi oila bolaning yuridik jihatdan yangi ota-onasi hisoblanadi. Bola bu oilaning familiyasini olishi mumkin.Vasiy oila unga boshqa ism ham berishi mumkin. Bolalikka olingan bolaning barcha majburiyatlari o'z bolalarining majburiyatlariga tenglashtiriladi. Bolalikka olish bir nechta bosqichda o'tishi mumkin: buning uchun bolaga shu mintaqada yangi ota-onas topishga harakat qilishadi, agar buning imkonи bo'lmasa unda bolalikka oluvchi oilani boshqa davlatdan qidirishadi. Boqib oluvchi oilaning yana bir turi mavjud: - vaqtinchalik qabul qiluvchi oila. Bu bizning jamiyatimiz uchun yangi hodisalardan biridir. Bunday oilaga berishdan asosiy maqsad bola shoshilinch tarzda oilasidan judo bo 'lsa (turli sabablar asosida; o'z oilasida inqirozli vaziyat, o'lim va boshqalarda) amalga oshiriladi. **Homiylik — 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan etim bolalarni** va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni, shuningdek sud tomonidan muomala layoqati cheklangan fuqarolarni ularga ta'minot, tarbiya va ta'lim berish, ularning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida joylashtirishning huquqiy shakli. Sog'lig'ining holatiga ko'ra mustaqil ravishda o'z huquqlarini amalga oshira olmaydigan va o'z majburiyatlarini bajara olmaydigan voyaga etgan muomalaga layoqatli fuqarolarga bu shaxslarning iltimosiga ko'ra homiylik belgilanishi mumkin.

Vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxs — o'ziga nisbatan vasiylik yoki homiylik belgilangan shaxs.



• shuningdek o‘z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishiga muhtoj bo‘lgan etim bolalar va ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar, ota-onalik huquqidan mahrum etilmagan ota-onasi bo‘lgan hamda bolalarning hayoti yoki sog‘lig‘iga bevosita tahdid tug‘dirayotgan yoki ularning ta’minoti, tarbiya va ta’lim olishiga doir talablarga javob bermaydigan sharoitda yashayotgan bolalar, sog‘lig‘ining holatiga ko‘ra homiylikka muhtoj bo‘lgan voyaga etgan muomalaga layoqatli fuqarolar, muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan fuqarolar. Vasiylik va homiylik organlarining **vakolatlari**, ularning vazifalari.

• **Sudlar** tomonidan bolalar tarbiyasi to‘g‘risidagi **nizolarni ko‘rib chiqishda** vasiylik va homiylik organlarining ishtiroki.

• Vasiylik va homiylik organlarining **tug‘ilishni qayd** qilishdagi vakolatlari.

• Vasiylik va homiylik organlarining **bolalarni farzandlikka olish** va **oilaga tarbiyaga** berish(**patronat**) bilan bog‘liq masalalardagi vakolatlari.

• Vasiylik va homiylik organining voyaga etmaganlarni **to‘la muomalaga layoqatli** deb e’lon qilish (**emansipatsiya**) bo‘yicha vakolatlari.

Tuman (shahar) xalq ta’limi **bo‘limlari**, tibbiyot birlashmalari, **bandlikka ko‘maklashish** va aholini ijtimoiy muhofaza qilish **markazlarining** vasiylik va homiylik sohasidagi

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Sulaymon Amirqulovich Xaydarov. (2024). O‘quvchilarni tarbiyashda ijtimoiy fanlarni o‘qitishni didaktik imkoniyatlari. SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL. 5.1.B.271-275.
2. Хайдаров, С. (2023). Pedagogik faoliyatda o‘qituvchi o‘zida kompetentlik sifatlarini shakillantirishi. Цифровизация современного образования: проблема и решение, 1(1), 64–67.
3. Хайдаров, С. А. (2023). ТАРИХ ДАРСЛАРИДА САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШИНГ УСУЛЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1/2), 92-96.



4. Хайдаров С. (2024). Spiritual influence on child education in families. Web of Teachers: Inderscience Research. 2 (11). 203-205.
5. Хайдаров С. (2025). Оилаларда фарзанд тарбиясига рухий таъсир ўтказиш. Modern Education and Development. 3 (17). 23-27.
6. Khaydarov S.A. (2025). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. Modern Education and Development. 3 (17). 28-33.
7. Xaydarov S.A. (2025). Ijtimoiy-gumanitar fanlarda raqamli metodlardan foydalanish yo'llari. NEW RENAISSANCE international scientific journal. 2(1). 91-94.
8. Xaydarov S.A. (2025). Yoshlarda vatanparvarlik hissini tarbiyalashda Boburnoma asariga ishlangan miniatyuralarning ahamiyati. Til va adabiyot.uz. 2.11-12.